V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XOITMETOV UMID AZADOVICH

VAQTGA BOG‘LIQ KOEFFITSIYENTLARGA VA MOSLANGAN MANBALARGA EGA NOCHIZIQLI EVOLYUTSION TENGLAMALARNI INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2024

UDK: 517.957

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XOITMETOV UMID AZADOVICH

VAQTGA BOG‘LIQ KOEFFITSIYENTLARGA VA MOSLANGAN MANBALARGA EGA NOCHIZIQLI EVOLYUTSION TENGLAMALARNI INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM234 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz /) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Xasanov Aknazar Bekdurdiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Rajabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Fayazov Kudratillo Sadridinovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Yaxshimuratov Alisher Bekchanovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Xoja Ahmad Yasaviy nomidagi xalqoro qozoq-turk universiteti (Qozog‘iston)**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 27 » fevral soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (178-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871)-207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 02 » fevral kuni tarqatildi.

(2024 yil « 02 » fevraldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, aksariyat hollarda Shturm-Liuvill va Dirak operatorlari uchun to‘g‘ri va teskari spektral masalalarini o‘rganish masalalariga keltiriladi. Hozirgi vaqtda gidrodinamika, plazma fizikasi, nochiziqli optika va boshqa ko‘plab nochiziqli fanlardagi tegishli jarayon va hodisalarni to‘g‘ri tushunish uchun matematik tenglamalarning aniq yechimi muhim ahamiyatga ega. Nochiziqli evolyutsion tenglamalarni chiziqli bo‘lmagan fizik hodisalarni tavsiflash uchun matematika va fizika sohasidagi ulkan ahamiyati tufayli katta e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan spektral analizning to‘g‘ri va teskari masalalarini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. Spektral analizning to‘g‘ri va teskari masalalari fanning kvant va amaliy mexanika, nochiziqli optika, radiotexnika, elastiklik nazariyasi, qattiq jismlarning kristall tuzilmalarini modellashtirish va boshqa shu kabi turli sohalarida qo‘llaniladi. Shu munosabat bilan tez kamayuvchi funksiyalar sinfida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli nochiziqli evolyutsion tenglamalar uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechishda sochilish nazariyasining teskari masalalari usulini qo‘llash mumkinligini isbotlash muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda jahonda tez kamayuvchi funksiyalar sinfida qo‘shimcha hadlarga ega nochiziqli evolyutsion tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimini topish bo‘yicha tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda va keng tadqiq etilmoqda. Bu borada spektral analiz usullari plazma fizikasi, nochiziqli optika, kvant mexanikasi, gidrodinamika sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli, tez kamayuvchi funksiyalar sinfida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli nochiziqli evolyutsion tenglamalar bilan bir qatorda, yuklangan va qo‘shimcha hadli nochiziqli evolyutsion tenglamalarning yechimlari mavjudligini ko‘rsatishga imkon beruvchi tadqiqotlarni ishlab chiqish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan differensial operatorlar nazariyasining dolzarb masalalarini yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan Shturm-Liuvill va Dirak operatorlari spektral nazariyasi muammolarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi, hamda spektral nazariyaning to‘g‘ri va teskari masalalari usuli yordamida matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarining soliton yechimlarini aniqlash bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. «Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik madellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlash doirasida matematik

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarini integrallashda muhim ahamiyat kasb qiluvchi chiziqli differensial operatorlar sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalarini o‘rganish va tatqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Nochiziqli evolyutsion tenglamalarni funksiyalarning turli sinflarida integrallash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyodagi eng yirik ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilmoqda, masalan: Sent-Xavier universitetida (AQSh), Arlingtondagi Texas universitetida (AQSh), Sent-Luis universitetida (AQSh), Rajab Toyyib Erdo‘g‘on universitetida (Turkiya), Technion Isroil texnologiya institutida (Isroil), Kataloniya politexnika universitetida (Ispaniya), Kolorado universitetida (AQSh), Lihay universitetida (AQSh), Xalqaro nazariy fizika markazida (Italiya), Shtutgart universitetida (Germaniya), Shvetsiya Qirollik universitetida (Shvetsiya), Vena universitetida (Avstriya), Missuri universitetida (AQSh), Ervin Shredinger institutida (Avstriya), Xitoy Fanlar akademiyasining Materiallar fizikasi xalqaro markazida (Xitoy), Shanxay universitetida (Xitoy), Vaseda ilg‘or tadqiqotlar institutida (Yaponiya), Boku universitetida (Ozarbayjon), Sankt-Peterburg davlat universitetida (Rossiya), Rossiya fanlar akademiyasi V.A.Steklov nomidagi Matematika institutining Sankt-Peterburg filialida (Rossiya), Saratov davlat universitetida (Rossiya), Ukraina milliy fanlar akademiyasining B.I. Verkin nomidagi fizika-texnika past haroratlar institutida (Ukraina), L.D. Landau nomidagi nazariy fizika institutida. (Rossiya), Ufa davlat aviatsiya texnika universitetida (Rossiya), Moskva davlat universitetida (Rossiya), Pulkovo rasadxonasida (Rossiya).

Nochiziqli differentsial tenglamalar uchun Koshi masalalarini yechish va ularni fan va texnikaning turli sohalarida global miqyosda qo‘llashga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida bir qator dolzarb muammolarning yechimi topildi, xususan: potentsiallari energiyaga bog‘liq bo‘lgan birinchi tartibli chiziqli

sistema uchun sochilish nazariyasining teskari masalasida umumlashtirilgan Marchenko usuli taqdim etildi (Arlingtondagi Texas universiteti, Sent-Luis universiteti, Rejep Tayyip Erdo‘g‘on universiteti); Shturm-Liuvill operatori va uning diskret analoglari uchun teskari masalalarni (spektral) yechish uchun yagonalik teoremasi isbotlandi (Shvetsiya Qirollik universiteti, nazariy geofizika instituti, Ukraina milliy fanlar akademiyasining B.I. Verkin nomidagi past haroratlar fizikasi va texnologiyasi instituti, Boku universiteti, Pulkovo rasadxonasi); kompleks solitonlar yechimlari bo‘yicha foydali natijalar qo‘lga kiritilgan va solitonlar, dipol solitonlar, ko‘p g‘alvirli solitonlar, bo‘yinbog‘da tashkil etilgan solitonlar kabi murakkab shakllarni olishi mumkin, degan rasmiy xulosaga kelindi (Technion). – Isroil texnologiya instituti, Kataloniya politexnika universiteti, Kolorado universiteti, Lihay universiteti), Toda zanjirlari va ularning yuqori tartibli analoglari integrallangan (Vena universiteti, Missuri universiteti, Ervin Shredinger instituti, Saratov davlat universiteti, L.D. Landau nomidagi nazariy fizika instituti); Schredinger tipidagi ikkita ayirmali tenglamalar uchun Darbu almashtirishlari va ularga tegishli Kram formulalari olingan (Shanxay universiteti, Vaseda ilg‘or tadqiqotlar instituti); Korteveg-de Friz (KdF) tenglamasi va uning turli umumlashtirishlari har-xil funksiyalar sinflarida integrallangan (Moskva davlat universiteti, L.D. Landau nomidagi nazariy fizika instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Ufa davlat aviatsiya texnika universiteti); Ablovits-Kaup-Nyuell-Sigur nolokal tenglamalari ierarxiyasining chekli zonali yechimlari topildi (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi V.A.Steklov nomidagi matematika institutining Sankt-Peterburg filiali); modifitsirlangan Korteveg-de Friz–sinus-Gordon (mKdF-sG) tenglamasining ko‘psolitonli yechimlari Hirota usuli yordamida topildi (Sankt-Xavier universiteti), o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Korteveg-de Friz (mKdF) tenglamasi ikki turdagi yondashuvlar va ramziy hisoblar yordamida o‘rganildi (Xitoy fanlar akademiyasining materiallar fizikasi Xalqaro markazi).

Hozirgi vaqtda matritsaviy koeffitsiyentli differensial operatorlar, turli graflarda qaraladigan differensial operatorlar, yuqori tartibli chiziqli differentsial operatorlar, ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli differentsial operatorlar uchun sochilish nazariyasining teskari masalalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Fazoviy o‘zgaruvchisi grafga tegishli bo‘lgan matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarini integrallash maqsadida sochilish nazariyasining teskari masalalari usulini ishlab chiqish bo‘yicha ham ustuvor ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Butun o‘qda o‘z-o‘ziga qo‘shma Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazariyasining teskari masalalari usuli ilk bor 1967 yilda bir guruh olimlar K. Gardner, J. Grin, M. Kruskal, R. Miuralar tomonidan KdF tenglamasi uchun qo‘llanilgan. P. Laks o‘zining ishida sochilish nazariyasining teskari masalalari usulining universal usul ekanligini ko‘rsatdi va yuqori tartibli KdF tenglamasi tushunchasini kiritdi. C. Yu. Li va R.S. Beardsli ishida yuqori tartibli KdF tenglamalarini olish uchun asimptotik jarayonlardan foydalanish taklif qilingan. Bunday tenglama ikki qavatli suyuqlikdagi ichki

to‘lqinlar uchun K.G. Kup, G. Batler ishida olingan. Zichlik va oqimlarning ixtiyoriy ravishda vertikal taqsimlanishga ega suyuqliklardagi yakkalangan to‘lqinlar xossalarining batafsilroq nazariy tahlili J. Gir va R. Grimshou ishida berilgan bo‘lib, unda turli modellar uchun yakkalangan to‘lqinlarning shakli va tezligiga tuzatishlar hisoblab chiqilgan. Sochilish nazariyasining teskari masalalari usulidan foydalangan holda M. Vadati 1972 yilda mKdF tenglamasini, M. Ablovis, D. Kaup, A. Nyuell, H. Sigur va V.E. Zaxarov, L.A. Taxtadjan, L.D. Faddeevlar sinus-Gordon tenglamasini integrallashgan. 1973 yilda Hirota o‘z nomi bilan ataladigan tenglamani ko‘rib chiqdi, bu tenglama dastlab yuqori tartibli dispersiyaga uchraydigan ultraqisqa impulslarni tasvirlash uchun model sifatida taklif qilingan. 1991 yilda Fukumoto va Miyazaki uch o‘lchovli Eylerian siqilmaydigan suyuqlik uchun girdobsimon harakatini modellashtirishda Hirota tenglamasining dolzarbligini ko‘rsatdilar.

Matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarini sochilish nazariyasining teskari masalalari usuli yordamida integrallashda asosan Shturm-Liuvill va Dirak operatorlari uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalariga oid natijalardan foydalaniladi. Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari V.A. Marchenko, I.M.Gelfand, B.M. Levitan, L.D. Faddeev, V.E. Lyantse, V.A. Blashshak va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Dirak operatori uchun sochilish nazariyasining teskari masalalari esa V.E. Zaxarov, A.B. Shabat, L.P. Nijnik, Fam Loy Vu, I.S. Frolov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

Moslangan manbalarga ega KdF tenglamasi ilk bor V.K. Melnikov ishlarida o‘rganilgan. J. Leon va A. Latifiyning ishida integral turdagi manbaga ega KdF tenglamasi uchun Koshi masalasini yechishga keltiriladigan aniq bir fizik masala tuzilgan. A.B. Xasanov, A.B. Yaxshimuratov va M.M. Matyoqubovlarning ishlarida davriy funksiyalar sinfida manbali KdF tenglamasi o‘rganilgan. A.B.Xasanov, G.U. Urazboyev, Q.A. Mamedov, F. Demontislarning ishlarida manbaga ega mKdF tenglamalari tez kamayuvchi funksiyalar sinfida ko‘rib chiqilgan. A.B. Xasanov, G.U. Urazboyev, T. Aktasun, F. Demontis, S. van der Milar ishlarida moslangan manbalarga ega sinus-Gordon tenglamasi ko‘rib chiqilib, sochilish nazariyasining teskari masalalari usuli yordamida aniq yechimlari topilgan. Hozirgi vaqtda yuklangan tenglamalar dolzar hisoblanadi. Buni yuklangan tenglamalarga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar tasdiqlaydi. Ulardan A.M. Naxushev, A.I. Kojanov, M.T. Jenaliev, A.B. Xasanov, A.B. Yaxshimuratov, M.M. Matyakubov, B. Babadjonov, F. Abdikarimov va boshqalarning ishlarini alohida ta’kidlash lozim.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq F-4-61 «Moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni teskari masala usulida integrallash» (2012-2016 yy.) va OT-F4-04(05) “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechishga tadbiqlari; Yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi matematik fizikaning vaqtga bog‘liq bo‘lgan koeffitsiyentlarga ega va qo‘shimcha hadlarga ega nochiziqli evolyutsion tenglamalarini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

manbasiz va moslangan manbalarga ega qo‘shimcha hadli umumiy KdF tenglamasi uchun Koshi masalasini tez kamayuvchi kompleks qiymatli funksiyalar sinfida yechish, shuningdek tez kamayuvchi kompleks qiymatli funksiyalar sinfida moslangan manbali yuklangan umumiy KdF tenglamasi uchun Koshi masalasini yechish;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida qo‘shimcha hadli mKdF tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimini topish algoritmini taklif qilish, shuningdek tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan mKdF tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimini topish algoritmini taklif qilish;

potensiali vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli, qo‘shimcha hadli va moslangan manbali sinus-Gordon tenglamasining yechimi bo‘ladigan Dirak operatori uchun sochilish nazariyasi berilganlarining evolyutsiyasini keltirib chiqarish, shuningdek tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali yuklangan sinus-Gordon tenglamasini integrallash;

potensiali tez kamayuvchi funksiyalar sinfida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli va qo‘shimcha hadlarga ega mKdV-sinus-Gordon tenglamasining yechimi bo‘ladigan Dirak operatori sochililish nazariyasi berilganlarining t bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini aniqlash, shuningdek potensiali tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali va manbasiz yuklangan mKdV-sinus-Gordon tenglamasining yechimi bo‘ladigan Dirak operatori sochililish nazariyasi berilganlarining t bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini aniqlash;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga ega Hirota tenglamasi uchun Koshi masalasini yechish mumkinligini ko‘rsatish, shuningdek tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan Hirota tenglamasi uchun Koshi masalasini yechish mumkinligini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti qo‘shimcha hadlarga va moslangan manbalarga ega KdF va umumiy KdF tenglamalari, moslangan manbalarga ega yuklangan KdF va yuklangan umumiy KdF tenglamalari, qo‘shimcha hadli mKdF tenglamasi va yuklangan mKdF tenglamasi, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli, qo‘shimcha hadli va moslangan manbali sinus-Gordon tenglamasi, moslangan manbali yuklangan sinus-Gordon tenglamasi, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli, qo‘shimcha hadli va moslangan manbali mKdV-sinus-Gordon tenglamasi, moslangan manbali yuklangan mKdV-sinus-Gordon tenglamasi, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli Hirota tenglamasi va yuklangan Hirota tenglamasi.

Tadqiqotning predmeti o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan Shturm-Liuvill operatori va Dirak operatori uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari hamda ularning matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarini integrallashga tatbiqidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik tahlil, matematik fizika, chiziqli differensial operatorlarning spektral nazariyasi, funksional analiz,

kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va differensial tenglamalar usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Koshi masalasining qo‘shimcha hadli va manbalarga ega umumiy Korteveg-de Friz, manbalarga ega yuklangan umumiy Korteveg-de Friz tenglamalarining tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechiluvchanligi ko‘rsatilgan;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida qo‘shimcha hadli modifitsirlangan Korteveg-de Friz va yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamalari uchun Koshi masalasining yechimini topishga imkon beruvchi algoritm ishlab chiqilgan;

vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga, qo‘shimcha hadlarga va moslangan manbalarga ega sinus-Gordon va moslangan manbalarga ega yuklangan sinus-Gordon tenglamalarining to‘liq integrallanuvchanligi isbotlangan;

qo‘shimcha hadlarga, vaqtga bog‘liq koeffitsientlarga ega modifitsirlangan Korteveg-de Friz – sinus-Gordon tenglamasining, manbasiz va moslangan manbali yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz – sinus-Gordon tenglamasining tez kamayuvchi funksiyalar sinfida to‘liq integrallanuvchanligi isbotlangan;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga ega Hirota tenglamasi va yuklangan Hirota tenglamasi uchun Koshi masalasining yechilivchanligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qo‘shimcha hadga va moslangan manbalarga ega KdF va umumiy KdF tenglamalari, moslangan manbalarga ega yuklangan KdF va yuklangan umumiy KdF tenglamalari, qo‘shimcha hadli mKdF va yuklangan mKdF tenglamalari, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga, qo‘shimcha had va moslangan manbalarga ega sinus-Gordon tenglamalari, qo‘shimcha had va moslangan manbalarga ega yuklangan sinus-Gordon tenglamalari, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga va qo‘shimcha hadlarga ega mKdF-sinus-Gordon tenglamasi, vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli Hirota va yuklangan Hirota tenglamalari uchun qo‘yilgan Koshi masalalarini hal qilish algoritmlarini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika, chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi, matematik va funksional tahlil, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, differensial operatorlar uchun teskari spektral masalalar nazariyasi va ularni manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashga tatbiqi hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda olingan ilmiy natijalar chiziqli operatorlarning spektral nazariyasida, differensial geometriyada, qattiq jismlar fizikasida, maxsus turdagi elektr uzatish liniyalarining ayrim modellarida, gidrodinamikada, kvant fizikasi va boshqa sohalarda qo‘llanilishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati ishda olingan ilmiy natijalardan manbasiz va moslangan manbalarga ega nochiziqli evolyutsion tenglamalarni, shuningdek yuklangan tenglamalarni integrallashda qo‘llash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nochiziqli evolyutsion tenglamalarni sochilish nazariyasining teskari masalalari usulida yechish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

moslangan manbalarga ega yuklangan Korteveg-de Friz va yuklangan umumiy Korteveg-de Friz, yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz va vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli, qo‘shimcha hadli va moslangan manballarga ega sinus-Gordon tenglamalarini integrallash jarayoni algoritmlaridan OT-F4-64 raqamli “Birjinslimas g‘ovak muhitlarda suyuqlik sizishi va moddalar ko‘chishi gidrodinamik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada yoriq-g‘ovak muhitlarda moddaning sizishi va anomal ko‘chishi gidrodinamik modellarini tuzish va sonli tahlil qilishda foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023 yil 18 noyabrdagi №10-6068-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi makroporali va mikroporali silindrik zonalardan tashkil topgan birjinslimas g‘ovak muhitlarda adsorbsiya xodisasini hisobga olib modda ko‘chishi masalalarini sonli tadqiq etishda zonalar o‘rtasida nisbiy umumiy va jamlanma modda almashinish uchun integral munosabatlarini samarali hisoblash imkonini bergan;

vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga va qo‘shimcha hadlarga ega modifitsirlangan Korteveg-de Friz – sinus-Gordon tenglamasini integrallashdagi algoritmlar va usullardan “Assotsiativ bo‘lmagan guruhlar va algebralarda gomologiyalar, gomotopiyalar va kategorik invariantlar” mavzusidagi xorijiy loyihada to‘rtinchi Kalojero-Moser fazosi va Puasson qavslarining to‘liq tavsifni olishda foydalanilgan (Santyago de Kompostela universitetining 2023 yil 23 noyabrdagi ma’lumotnomasi, Ispaniya). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi uchinchi va to‘rtinchi Kalojero-Moser fazolarining koordinata halqalarini minimal hosil qiluvchilari to‘plamini aniqlash va hosil qiluvchilar orasidagi algebraik munosabatlarni topish hamda bu fazolar ustida Puasson algebraik strukturani to‘liq tavsiflash imkonini bergan;

qo‘shimcha hadlarga va moslangan manbalarga ega umumiy Korteveg-de Friz, qo‘shimcha hadli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamalarini integrallashdagi usullar va algoritmlardan OT-F4-04(05) raqamli “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechishga tadbiqlari, Yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” mavzusidagi fundamental loyihada nochiziqli evolyutsion tenglamarni integrallashda foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2023 yil 21 noyabrdagi №01-04/01-11/3118-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi moslangan manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasini teskari masalalar usuli yordamida integrallash, davriy funksiyalar sinfida yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi uchun manba qurish algoritmini keltirib chiqarish, integral manbali matritsaviy Korteveg-de Friz tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechish algoritmini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya asosiy natijalari 11 ta xalqaro va 14 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 45 ta ilmiy ish chop qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, 12 tasi xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda va 8 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 214 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan

Dissertatsiyaning «**Qo'shimcha hadli umumiy Korteveg-de Friz tenglamasini tez kamayuvchi kompleks qiymatli funksiyalar sinfida integrallash**» deb nomlangan birinchi bobida o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalariga oid zaruriy ma'lumotlar keltirilgan. Qo'shimcha hadlarga va moslangan manbalarga ega KdF va umumiy KdF tenglamalari uchun Koshi masalasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechilgan, shuningdek tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali yuklangan KdF va yuklangan umumiy KdF tenglamalari uchun Koshi masalasi yechilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida, keyingi bayonlar uchun zarur bo'lgan, dissertatsiya mazmunini ochib berishda ishlatiladigan, o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Bizga quyidagi tenglama berilgan bo'lsin

$$Ly = -y'' + u(x)y = \lambda y, \quad x \in (-\infty, \infty), \quad \lambda = k^2, \tag{1}$$

bu yerda $u(x)$ koeffitsiyent (potensial) kompleks qiymatli bo'lib, shunday $\varepsilon > 0$ son mavjudki, quyidagi o'rinli

$$\int_{-\infty}^{\infty} |u(x)| e^{\varepsilon |x|} dx < \infty. \tag{2}$$

Quyidagi

$$e_+(x,k) = e^{ikx} - \int_x^{\infty} \frac{\sin k(x-t)}{k} u(t) e_+(t,k) dt, \; e_-(x,k) = e^{-ikx} + \int_{-\infty}^{x} \frac{\sin k(x-t)}{k} u(t) e_-(t,k) dt.$$

integral tenglamalarning yechimlarini $e_{\pm}(x,k)$ orqali belgilaymiz. Bu $e_{+}(x,k)$, $e_{-}(x,k)$ funksiyalar $\operatorname{Im} k > -\frac{\varepsilon}{2}$ da (1) tenglamaning yechimi bo‘ladi, shuningdek cheksizlikda quyidagi asimptotikaga ega:

$$e_{+}(x,k) = e^{ikx} + o(1), \quad x \to \infty, \qquad e_{-}(x,k) = e^{-ikx} + o(1), \quad x \to -\infty.$$

Yuqoridagi (1) tenglamaning $e_{\pm}(x,k)$ yechimlari mavjud, yagona, $\operatorname{Im} k > -\frac{\varepsilon}{2}$ yarim tekislikda k bo‘yicha golomorf bo‘lib, quyidagicha integral tasvirlarga ega

$$e_{+}(x,k) = e^{ikx} + \int_{x}^{\infty} K_{+}(x,t)e^{ikt}dt, \qquad e_{-}(x,k) = e^{-ikx} + \int_{-\infty}^{x} K_{-}(x,t)e^{-ikt}dt. \qquad (3)$$

Shuning bilan birga (3) tasvirlardagi $K_{\pm}(x,t)$ yadrolar (1) tenglamaning $u(x)$ potensiali bilan quyidagicha bog‘lanishga ega:

$$u(x) = -2\frac{d}{dx}K_{+}(x,x), \quad u(x) = 2\frac{d}{dx}K_{-}(x,x).$$

A) $\omega(k)$ va $v(k)$ orqali ushbu

$$\omega(k) = e_{-}(x,k)e'_{+}(x,k) - e'_{-}(x,k)e_{+}(x,k), \quad v(k) = e_{+}(x,-k)e'_{-}(x,k) - e_{-}(x,k)e'_{+}(x,-k),$$

vronskianlarni belgilaymiz. $\omega(k)$ funksiyani $\operatorname{Im} k > -\frac{\varepsilon}{2}$ tekislikka golomorf ravishda davom qildirish mumkin va bu funksiya quyidagicha asimptotikaga ega bo‘lib

$$\omega(k) = 2ik\left[1 + O\left(k^{-1}\right)\right], \quad |k| \to \infty, \qquad (4)$$

bu asimptotika $\operatorname{Im} k > \eta$, $\eta > -\frac{\varepsilon}{2}$ tekislikda tekis bajariladi. $\omega(k)$ va $v(k)$ funksiyalar $|\operatorname{Im} k| < \frac{\varepsilon}{2}$ da quyidagi ayniyatni qanoatlantiradi:

$$\omega(k)\omega(-k) - v(k)v(-k) = 4k^2.$$

B) Bu (4) asimptotika va $\omega(k)$ funksiyaning analitikligidan $\operatorname{Im} k \geq 0$ yarim tekislikda $\omega(k)$ funksiya cheklita (umumiy holda karrali) nollarga ega bo‘lishi mumkinligi kelib chiqadi. Agar $k_1, k_2, ..., k_N$ sonlar $\omega(k)$ funksiyaning haqiqiy bo‘lmagan nollari bo‘lsa, u holda $\lambda_j = k_j^2$, $j = \overline{1,N}$ sonlar o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan L Shturm-Liuvill operatorining xos qiymatlaridan iborat bo‘ladi. O‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan L Shturm-Liuvill operatori spektral maxsusliklarga ega emas deb hisoblaymiz, ya’ni $\omega(k) \neq 0, \forall k \in \mathbb{R}$.

C) Quyidagi

$$S(k) = \frac{v(k)}{\omega(k)}$$

funksiyaga L operator sochilish (tarqalish) funksiyasi deyiladi. Bu $S(k)$ funksiya uchun quyidagilar o‘rinli:

1) $S(k)$ funksiya $|\mathrm{Im}\, k| < \varepsilon_0$ da meromorf bo‘lib, har bir $\eta < \varepsilon_0$ uchun ushbu

$$S(k) = O\left(k^{-1}\right), \quad |k| \to \infty,$$

munosabat $|\mathrm{Im}\, k| \le \eta$ da tekis bajariladi. Bunda $\varepsilon_0 = \min\left\{\frac{\varepsilon}{2}, \varepsilon_1\right\}$ bo‘lib, ε_1 esa $\mathrm{Im}\, k = 0$ haqiqiy o‘q va $\omega(k)$ funksiyaning haqiqiy bo‘lmagan nollarigacha bo‘lgan masofa;

2) $S(k)$ funksiya $|\mathrm{Im}\, k| < \varepsilon_0$ da haqiqiy bo‘lmagan qutblarga ega emas;

3) agar $S^{-1}(k_0) = 0,\ k_0 \neq 0$ bo‘lsa, u holda $S(-k_0) \neq 0$ o‘rinli;

4) agar $k_0 \neq 0$ bo‘lsa, u holda $1 - S(k)S^{-1}(k) \neq 0$ va $\lim\limits_{k\to 0}\left|k^2\left[1 - S(k)S(-k)\right]^{-1}\right| < \infty$.

D) Normallovchi o‘zgarmaslar zanjiri deb ataluvchi $\{\varkappa_0^j, \varkappa_1^j, ..., \varkappa_{m_j-1}^j\}$ va $\{\theta_0^j, \theta_1^j, ..., \theta_{m_j-1}^j\},\ \ j = \overline{1,N}$ zanjirlar mavjud bo‘lib, ular uchun quyidagi

$$\frac{1}{s!}\left(\left(\frac{d}{dk}\right)^s e_-(x,k)\right)\Big|_{k=k_j} = \sum_{\nu=0}^{s} \varkappa_{s-\nu}^j \frac{1}{\nu!}\left(\left(\frac{d}{dk}\right)^\nu e_+(x,k)\right)\Big|_{k=k_j},\ \ j = \overline{1,N},\ \ s = \overline{0, m_j - 1},$$

$$\frac{1}{s!}\left(\left(\frac{d}{d\lambda}\right)^s e_-(x,\sqrt{\lambda})\right)\Big|_{\lambda=k_j^2} = \sum_{\nu=0}^{s} \theta_{s-\nu}^j \frac{1}{\nu!}\left(\left(\frac{d}{d\lambda}\right)^\nu e_+(x,\sqrt{\lambda})\right)\Big|_{\lambda=k_j^2},\ j = \overline{1,N},\ s = \overline{0, m_j - 1}$$

tengliklar o‘rinli.

$\{\varkappa_0^j, \varkappa_1^j, ..., \varkappa_{m_j-1}^j\}$ va $\{\theta_0^j, \theta_1^j, ..., \theta_{m_j-1}^j\},\ j = \overline{1,N}$ normallovchi o‘zgarmaslar zanjirlari bir-biri bilan rekurrent munosabatlar orqali bog‘lanishga ega.

$\left\{S(k),\ k_j,\ \varkappa_0^j, \varkappa_1^j, ..., \varkappa_{m_j-1}^j,\ j = \overline{1,N}\right\}$ jamlanmaga (1) tenglama sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi. Sochilish nazariyasining to‘g‘ri masalasi deb, (1) tenglamada $u(x)$ potensial berilganda, bu tenglamaning sochilish nazariyasining berilganlarini topishga aytiladi, teskari masala deb esa, shu (1) tenglamaning $u(x)$ potensialini sochilish nazariyasining berilganlari orqali tiklashga aytiladi.

Yuqoridagi (3) integral tasvirdagi $K_+(x,y)$ funksiya ushbu

$$K_+(x,t) + F_+(x+t) + \int_x^\infty K_+(x,z)F_+(z+t)dz = 0,\ \ -\infty < x \le t < \infty,$$

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamasini qanoatlantiradi. Bunda

$$F_+(x) = \frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{\infty} S(k)e^{ikx}dk + \sum_{j=1}^{N}\sum_{\nu=0}^{m_j-1} \varkappa_{m_j-\nu-1}^k \frac{1}{\nu!}\frac{d^\nu}{dz^\nu}\left[\frac{2z(z-k_j)^{m_j}}{\omega(z)}e^{izx}\right]\Bigg|_{z=k_j}, \qquad (5)$$

bo‘lib, $\omega(z)$ funksiya $\omega(k), \left(|\mathrm{Im}\, k| < \frac{\varepsilon}{2}\right)$ funksiyaning $\mathrm{Im}\, z > \frac{\varepsilon}{2}$ tekislikka analitik davomi bo‘lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\omega(z)=(2iz-4\varepsilon)\prod_{j=1}^{N}\left(\frac{z-k_j}{z+k_j}\right)^{m_j}\exp\left\{\frac{1}{2\pi i}\int_{-\infty}^{\infty}\frac{\ln\frac{k^2}{k^2+4\varepsilon^2}\left(1-s(k)s(-k)\right)}{k-z}dk\right\}.$$

E) $F_+(x)$ funsiya quyidagi xossalarga ega:

1) $F_+'(x)$ uzluksiz hosila mavjud va ixtiyoriy a haqiqiy son uchun quyidagi o‘rinli

$$\int_a^{\infty}\left|F_+'(x)\right|e^{\frac{\varepsilon}{2}|x|}dx<\infty;$$

2) agar $\varphi_x(t)e^{-\frac{\varepsilon}{2}t}$ funksiya $t>x$ da jamlanuvchi bo‘lib, ushbu

$$\varphi_x(t)+\int_x^{\infty}\varphi_x(\rho)F_+(\rho+t)d\rho=0,\qquad t>x,$$

tenglamani qanoatlantirsa, u holda $t>x$ da $\varphi_x(t)=0$ bo‘ladi.

Quyidagi teoremalar o‘rinli.

1-teorema. Sochilish nazariyasining berilganlari L operatorni bir qiymatli aniqlaydi.

2-teorema Agar $S(k)$ funksiya biror $\left|\operatorname{Im}k\right|\le\varepsilon_0$ $(\varepsilon_0>0)$ sohada C) shartlarni qanoatlantirsa, biror k_j, $\left(\operatorname{Im}k_j\ge\varepsilon_0\right),\left(j=\overline{1,N}\right)$ sonlar va $\left\{\varkappa_0^j,\varkappa_1^j,...,\varkappa_{m_j-1}^j,\ j=\overline{1,N}\right\}$ sonlar zanjiri shunday bo‘lsaki, bu kattaliklar yordamida (5) formula orqali tuzilgan $F_+(x)$ funksiya E) shartlarni qanoatlantirsa, u holda (2) shartni qanoatlantiruvchi shunday yagona $u(x)$ potensial mavjudki, L $(Ly=-y''+u(x)y)$ operatorning sochilish nazariyasining berilganlari berilgan sonlar bilan ustma ust tushadi.

Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi paragrafida tez kamayuvchi kompleks qiymatli funksiyalar sinfida qo‘shimcha hadli umumiy KdF tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechish usuli bayon qilingan. Aytaylik,

$$H=-\frac{1}{2}\frac{d^3}{dx^3}+2u\frac{d}{dx}+u'.$$

Bunda $u=u(x,t),\ u'=u_x$. Ushbu

$$HP_k=P_{k+1}',$$

munosabatlarni o‘rinli qiladigan P_k, $k\in\{0\}\cup\mathbb{N}$ (u va u ning x bo‘yicha hosilalariga nisbatan) ko‘phadlar ketma-ketligi topilishini ko‘rsatish qiyin emas.

Quyidagi operatorlarni kiritamiz:

$$L(t)\equiv-\frac{d^2}{dx^2}+u(x,t),\qquad B_q=\sum_{k=0}^{q}\left(\frac{1}{2}P_k'-P_k\frac{d}{dx}\right)(2L)^{q-k}.$$

Bu operatorlar uchun quyidagi munosabat o‘rinli:

$$[B_q,L]=B_qL-LB_q=-P_{q+1}'.$$

Aytaylik, $c_0, c_1, ..., c_p$ ixtiyoriy haqiqiy sonlar bo‘sin. Agar biz ushbu

$$Y_p = \sum_{q=0}^{p} c_q B_q, \qquad Z_p = -\sum_{q=0}^{p} c_q P'_{q+1}$$

belgilashlarni kiritsak, u holda

$$[Y_p, L] = Z_p$$

tenglik bajariladi. Quyidagi

$$u_t = Z_p(u),$$

tenglamani umumiy KdF tenglamasi deb atash qabul qilingan. Xususan, agar $p=1,\ c_0=0,\ c_1=4$ va $p=2,\ c_0=0,\ c_1=0,\ c_2=8$ deb olsak, mos ravishda quyidagi tenglamalarga ega bo‘lamiz:

$$u_t - 6uu_x + u_{xxx} = 0, \qquad u_t = u_{xxxxx} - 20u_x u_{xx} - 10uu_{xx} + 30u^2 u_x.$$

Aytaylik, quyidagi

$$u_t = Z_p(u) + \rho(t)u_x, \tag{6}$$

qo‘shimcha hadli umumiy KdF tenglamasi berilgan bo‘lsin. Shuning bilan birga qo‘shimcha had oldidagi $\rho(t)$ koeffitsiyent berilgan uzluksiz differensiallanuvchi funksiyadir. Biz (6) tenglamani quyidagi

$$u(x,0) = u_0(x), \quad x \in \mathbb{R}, \tag{7}$$

boshlang‘ich shart bilan o‘rganamiz, bunda boshlang‘ich $u_0(x)$ funksiya kompleks qiymatli va quyidagicha xossalarga ega:

1) biror $\varepsilon > 0$ son uchun

$$\int_{-\infty}^{\infty} |u_0(x)| e^{\varepsilon|x|} dx < \infty, \tag{8}$$

2) $L(0) = -\dfrac{d^2}{dx^2} + u(x,0)$ operator spektral maxsusliklarsiz operator bo‘lib, $m_1(0), m_2(0), ..., m_N(0)$ karrali aniq N ta $\lambda_1(0), \lambda_2(0), ..., \lambda_N(0)$ kompleks xos qiymatlarga ega.

Aytaylik, $u(x,t)$ funksiya yetarlicha silliq bo‘lib, $x \to \pm\infty$ da yetarlicha tez nolga intilsin, ya’ni quyidagi o‘rinli bo‘lsin

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left(|u(x,t)| e^{\varepsilon|x|} + \sum_{j=1}^{2p+1} \left| \frac{\partial^j u(x,t)}{\partial x^j} \right| \right) dx < \infty. \tag{9}$$

3-teorema. Faraz qilaylik, o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan $L(t)$ Shturm-Liuvill operatorining potensiali bo‘lgan $u(x,t)$ kompleks qiymatli funksiya (6)-(9) masalaning yechimi bo‘lsin, u holda $L(t)$ operator sochilish nazariyasining berilganlari $t > 0$ da t ga nisbatan quyidagicha tenglamalar orqali o‘zgaradi:

$$\frac{\partial S(k,t)}{\partial t} = \left[ik \sum_{l=0}^{p} c_l \left(2k^2\right)^l + 2ik\rho(t) \right] S(k,t), \quad \left(|\operatorname{Im} k| < \frac{\varepsilon}{2} \right), \quad \lambda_n(t) = \lambda_n(0),$$

$$\frac{d\varkappa_r^n(t)}{dt}=i\left(\sum_{d=0}^{p}c_d 2^d k_n^{2d+1}+2k_n\rho(t)\right)\varkappa_r^n(t)+i\left(\sum_{d=0}^{p}c_d 2^d(2d+1)k_n^{2d}+2\rho(t)\right)\varkappa_{r-1}^n(t)+$$
$$+i\sum_{l=2}^{r}\left[\sum_{d=0}^{p}c_d 2^d\frac{1}{l!}\frac{(2d+1)!}{(2d+1-l)!}k_n^{2d+1-l}\right]\varkappa_{r-l}^n(t),\ \ (n=\overline{1,N},\ r=0,1,\ldots,m_n-1).$$

1-izoh. 3-teoremada olingan tenglamalar $L(t)$ operator sochilish nazariyasi berilganlarining o‘zgarish dinamikasini to‘liq aniqlaydi, shuning uchun (6)-(9) masalani yechish uchun sochilish nazariyasining teskari masalalari usulini qo‘llash imkonini beradi. Natijada $\left\{S(k,t),\ k_j(t),\varkappa_0^j(t),\varkappa_1^j(t),...,\varkappa_{m_j-1}^j(t),\ j=\overline{1,N}\right\}$ jamlanma A-E shartlarni qanoatlantiradi, shuning uchun birinchi va ikkinchi teoremalarga ko‘ra $L(t)$ operatorning $u(x,t)$ potensiali bir qiymatli aniqlanadi va (6)-(9) masalaning yechimi bo‘ladi.

Bu paragrafning davomida xuddi shunday natija qo‘shimcha hadli klassik KdF tenglamasi uchun ham keltirib chiqarilgan hamda yuklangan KdF va yuklangan umumiy KdF tenglamalari uchun qo‘yilgan Koshi masalalarini ham yechim mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu paragrafda bir nechta misollar ham yechib ko‘rsatilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida moslangan manbali qo‘shimcha hadli umumiy KdF, moslangan manbali qo‘shimcha hadli KdF va moslangan manbali yuklangan umumiy KdF, moslangan manbali yuklangan KdF tenglamalari uchun qo‘yilgan Koshi masalasi yechimini barcha tez kamayuvchi kompleks qiymatli boshlang‘ich shartlarda yechish algoritmi keltirilgan.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida integral turdagi moslangan manbali qo‘shimcha hadli umumiy KdF, integral turdagi moslangan manbali qo‘shimcha hadli KdF va integral turdagi moslangan manbali yuklangan umumiy KdF, integral turdagi moslangan manbali yuklangan KdF tenglamalari uchun qo‘yilgan Koshi masalasi tez kamayuvchi kompleks qiymatli funksiyalar sinfida integrallangan.

Dissertatsiyaning **«Qo‘shimcha hadli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash»** deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘shimcha hadli mKdF tenglamasi va yuklangan mKdF tenglamasining tez kamayuvchi boshlang‘ich shartlardagi yechimlari topilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida bu bob va keying boblarda keltirilgan masalalarni yechishda zarur bo‘lgan Dirak operatori uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalariga oid zaruriy ma’lumotlar keltirilgan.

Butun o‘qda $(-\infty<x<\infty)$ quyidagi

$$\begin{cases}v_{1x}+i\xi v_1=q(x)v_2,\\ v_{2x}-i\xi v_2=r(x)v_1,\end{cases}\qquad(10)$$

Dirak tenglamalar sistemasi berilgan bo‘lsin, bunda $q(x)$ va $r(x)$ funksiyalar ushbu

$$\int_{-\infty}^{\infty}\left(1+|x|\right)|q(x)|dx<\infty,\qquad\int_{-\infty}^{\infty}\left(1+|x|\right)|r(x)|dx<\infty.\qquad(11)$$

shartlarni qanoatlantiradi. Quyidagi

$$L = i\begin{pmatrix} \dfrac{d}{dx} & -q(x) \\ r(x) & -\dfrac{d}{dx} \end{pmatrix}$$

operator yordamida (10) tenglamalar sistemasini $Lv = \xi v$ ko‘rinishda yozish mumkin, bu yerda $v = (v_1,\ v_2)^T$.

Agar (11) shartlar bajarilsa, u holda (10) tenglamalar sistemasi quyidagicha

$$\left.\begin{matrix} \varphi \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \\ \tilde{\varphi} \sim \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \end{matrix}\right\}, \quad x \to -\infty; \qquad \left.\begin{matrix} \psi \sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \\ \tilde{\psi} \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \end{matrix}\right\}, \quad x \to \infty$$

asimptotikalarga ega bo‘ladigan Yost yechimlariga ega bo‘ladi.

Haqiqiy ξ sonlari uchun, $\{\varphi(x,\xi), \tilde{\varphi}(x,\xi)\}$ va $\{\psi(x,\xi), \tilde{\psi}(x,\xi)\}$ vektor-funksiyalar juftliklari (10) tenglamalar sistemasining chiziqli erkli yechimlar sistemasi bo‘ladi. Shu sababli quyidagilar o‘rinli

$$\varphi = a(\xi)\tilde{\psi} + b(\xi)\psi, \qquad \tilde{\varphi} = -\bar{a}(\xi)\psi + \bar{b}(\xi)\tilde{\psi}.$$

$a(\xi)$ funksiya $\operatorname{Im}\xi > 0$ yuqori kompleks yarim tekislikda golomorf, $\bar{a}(\xi)$ funksiya esa $\operatorname{Im}\xi < 0$ quyi kompleks yarim tekislikda golomorfdir. $|\xi| \to \infty$ larda $a(\xi)$ funksiya $a(\xi) = 1 + O\left(|\xi|^{-1}\right)$, $(\operatorname{Im}\xi \geq 0)$ asimptotikaga ega. Bundan tashqari $a(\xi)$ $(\bar{a}(\xi))$ funksiya $\operatorname{Im}\xi > 0$ $(\operatorname{Im}\xi < 0)$ kompleks yarim tekislikda faqatgina chekli sondagi $\xi_k, \left(\bar{\xi}_k\right)$ nollarga (umumiy holda karrali) ega bo‘lishi mumkin. m_k orqali $a(\xi) = 0$ tenglama nollarining karrasini belgilaymiz. $a(\xi)$ $(\bar{a}(\xi))$ funksiyaning yuqori (quyi) kompleks yarim tekisliklardagi haqiqiy bo‘lmagan $\xi_k\ (\bar{\xi}_k)$ nollari o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan L Dirak operatorining xos qiymatlari bilan ustma-ust tushadi. O‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan L Dirak operatori spektral maxsusliklarga ega bo‘lmasin, ya’ni $a(\xi) \neq 0,\ \xi \in \mathbb{R}$.

Normallovchi o‘zgarmaslar zanjiri deb nomlanuvchi $\left\{\varkappa_0^k, \varkappa_1^k, ..., \varkappa_{m_k-1}^k\right\}$ va unga qo‘shma zanjir deb nomlanuvchi $\left\{\bar{\varkappa}_0^k, \bar{\varkappa}_1^k, ..., \bar{\varkappa}_{m_k-1}^k\right\}$ sonlar zanjirlari mavjud bo‘lib, ular uchun quyidagi munosabatlar o‘rinli bo‘ladi

$$\frac{1}{l!}\left(\frac{d}{d\xi}\right)^l \varphi(x,\xi)\Big|_{\xi=\xi_k} = \sum_{j=0}^{l} \varkappa_{l-j}^k \frac{1}{j!}\left(\frac{d}{d\xi}\right)^j \psi(x,\xi)\Big|_{\xi=\xi_k}, \quad k = \overline{1,N},\ l = \overline{0,m_k-1},$$

$$\frac{1}{l!}\left(\frac{d}{d\xi}\right)^l \psi(x,\xi)\Big|_{\xi=\xi_k} = \sum_{j=0}^{l} \bar{\varkappa}_{l-j}^k \frac{1}{j!}\left(\frac{d}{d\xi}\right)^j \varphi(x,\xi)\Big|_{\xi=\xi_k}, \quad k = \overline{1,N},\ l = \overline{0,m_k-1},$$

shuning bilan birga $\varkappa_0^k \neq 0$ va $\bar{\varkappa}_0^k \neq 0$ bo‘ladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida qo‘shimcha hadli mKdF tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash masalasi qaralgan.

Bizga quyidagi

$$u_t + 6u^2u_x + u_{xxx} + \rho(t)u_x(x,t) = 0, \tag{12}$$

qo‘shimcha hadli mKdF tenglamasini berilgan bo‘lsin. Bunda $\rho(t)$ berilgan uzluksiz differensiallanuvchi funksiya. Berilgan (12) tenglamani ushbu

$$u(x,0) = u_0(x), \tag{13}$$

boshlang‘ich shart bilan qaraymiz, bu yerda $u_0(x)$ $\left(-\infty < x < \infty\right)$ boshlang‘ich funksiya quyidagicha xossalarga ega:

1)

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left(1+|x|\right)|u_0(x)|dx < \infty; \tag{14}$$

2) o‘z-o‘iga qo‘shma bo‘lmagan $L(0) = i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0(x) \\ -u_0(x) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ Dirak operatori spektral maxsusliklarga ega emas va $m_1(0), m_2(0),\ldots,m_{2N}(0)$ karrali aniq $2N$ ta $\xi_1(0),\xi_2(0),\ldots, \xi_{2N}(0)$ xos qiymatlarga ega.

$u(x,t)$ yechimni quyidagi sinfdan izlaymiz:

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left(1+|x|\right)\left|\frac{\partial^j u(x,t)}{\partial x^j}\right|dx < \infty, \quad j = 0,1,2,3. \tag{15}$$

4-teorema. Faraz qilaylik, $u(x,t)$ funksiya (12)-(15) masalaning yechimi bo‘lsin, u holda $u(x,t)$ potensialli $L(t), t > 0$ operator sochilish nazariyasining berilganlari t bo‘yicha quyidagi differensial tenglamalar orqali oz‘garadi

$$\frac{dr^+(\xi,t)}{dt} = \left(8i\xi^3 - 2i\xi\rho(t)\right)r^+(\xi,t), \ (\mathrm{Im}\,\xi = 0); \quad \xi_k(t) = \xi_k(0), \quad k = \overline{1,N},$$

$$\frac{d\varkappa_0^n(t)}{dt} = \left(8i\xi_n^3 - 2i\xi_n\rho(t)\right)\varkappa_0^n(t),$$

$$\frac{d\varkappa_1^n(t)}{dt} = \left(8i\xi_n^3 - 2i\xi_n\rho(t)\right)\varkappa_1^n(t) + \left(24i\xi_n^2 - 2i\rho(t)\right)\varkappa_0^n(t),$$

$$\frac{d\varkappa_2^n(t)}{dt} = \left(8i\xi_n^3 - 2i\xi_n\rho(t)\right)\varkappa_2^n(t) + \left(24i\xi_n^2 - 2i\rho(t)\right)\varkappa_1^n(t) + 24i\xi_n\varkappa_0^n(t),$$

$$\frac{d\varkappa_3^n(t)}{dt} = (8i\xi_n^3 - 2i\xi_n\rho(t))\varkappa_3^n(t) + (24i\xi_n^2 - 2i\rho(t))\varkappa_2^n(t) + 24i\xi_n\varkappa_1^n(t) + 8i\varkappa_0^n(t),$$

$$\frac{d\varkappa_l^n(t)}{dt} = \left(8i\xi_n^3 - 2i\xi_n\rho(t)\right)\varkappa_l^n(t) + \left(24i\xi_n^2 - 2i\xi_n\rho(t)\right)\varkappa_{l-1}^n(t) + 24i\xi_n\varkappa_{l-2}^n(t) + 8i\varkappa_{l-3}^n(t),$$

$$n = \overline{1,N}, \ l = 4,5,\ldots,m_n - 1.$$

Bu paragrafning davomida yuklangan mKdF tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini ham tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechish mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu paragrafda bir nechta misollar ham yechib ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **«Vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga va qo‘shimcha hadga ega sinus-Gordon tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash»** deb nomlangan uchinchi bobida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentlarga va qo‘shimcha hadlarga ega sinus-Gordon tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechish uchun sochilish nazariyasining teskari masalalari usuli qo‘llanilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentllarga va qo‘shimcha hadga ega sinus-Gordon va yuklangan sinus-Gordon tenglamalari integrallangan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi vaqtga bog‘liq koeffitsiyentllarga va qo‘shimcha hadlarga ega sinus-Gordon tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechishga bag‘ishlangan.

Quyidagi tenglamalar sistemasi berilgan bo‘lsin

$$u_{xt} = \rho(t)\sin u + \omega(t)u_{xx} + 2\sum_{k=1}^{N}\sum_{j=0}^{m_{k-1}} C_{m_k-1}^{j}\left(f_{k1}^{j} f_{k1}^{m_k-1-j} - f_{k2}^{j} f_{k2}^{m_k-1-j} \right) \qquad (16)$$

$$L(t) f_k^j = \xi_k f_k^j + j f_k^{j-1}, \quad \operatorname{Im}\xi_k > 0, \quad k = \overline{1,N}, \ j = 0,1,\ldots,m_k - 1, \qquad (17)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \quad x \in \mathbb{R}. \qquad (18)$$

Bu yerda

$$C_n^l = \frac{n!}{(n-l)!l!}, \quad L(t) = i\begin{pmatrix} \dfrac{d}{dx} & \dfrac{u_x}{2} \\ \dfrac{u_x}{2} & -\dfrac{d}{dx} \end{pmatrix}, \quad u_{xx} = \frac{\partial^2 u(x,t)}{\partial x^2}, \quad u_{xt} = \frac{\partial^2 u(x,t)}{\partial x \partial t},$$

(16) tenglamadagi $\rho(t)$, $\omega(t)$ koeffitsiyentlar berilgan uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar, $f_k^j = (f_{k1}^j(x,t), f_{k2}^j(x,t))^T$, $j = 0,1,\ldots,m_k - 1$ vektor-funksiyalar ixtiyoriy manfiymas t larda $L^2(-\infty,\infty)$ fazoga tegishli bo‘lib, $f_k^0 = (f_{k1}^0(x,t), f_{k2}^0(x,t))^T$ vektor-funksiyalar esa $L(t)$ operatorning mos ravishda m_k, $k = \overline{1,N}$ karrali ξ_k, $(\operatorname{Im}\xi_k > 0)$ xos qiymatlariga mos xos funksiyalaridir.

Qaralayotgan masalada $u_0(x)$ $(-\infty < x < \infty)$ boshlang‘ich funksiya quyidagicha xossalarga ega:

1)

$$x \to \infty \text{ da } u_0(x) \equiv 0 (mod\ 2\pi); \qquad \int_{-\infty}^{\infty} \left((1+|x|)|u_0'(x)| + |u_0''(x)| \right) dx < \infty, \qquad (19)$$

2) o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan $L(0)$ Dirak operatori spektral maxsusliklarga ega emas, $m_1(0), m_2(0), \ldots, m_{2N}(0)$ karrali aniq $2N$ ta $\xi_1(0), \xi_2(0), \ldots, \xi_{2N}(0)$ xos qiymatlarga ega.

Ushbu

$$\frac{1}{(m_k - 1 - s)!}\int_{-\infty}^{\infty} \left(f_{k1}^{m_k-1} f_{k2}^{m_k-1-s} + f_{k2}^{m_k-1} f_{k1}^{m_k-1-s} \right) dx = A_{m_k-1-s}^{k}(t), \ k = \overline{1,N}, \ s = \overline{0, m_k - 1} \quad (20)$$

tenglik o‘rinli deb faraz qilaylik, bunda $A^k_{m_k-1-s}(t)$ oldindan berilgan t $(t\ge 0)$ ning funksiyalari.

Aytaylik, izlanayotgan $u(x,t)$ funksiya yetarlicha silliq bo‘lib, $x\to\pm\infty$ da yetarlicha tez nolga intilsin, ya’ni quyidagi o‘rinli bolsin

$$x\to\infty \text{ da } u(x,t)\equiv 0(mod\ 2\pi);\quad \int_{-\infty}^{\infty}\left((1+|x|)|u_x(x,t)|+|u_{xx}(x,t)|\right)dx<\infty. \quad (21)$$

5-teorema. Faraz qilaylik, $\left\{u(x,t),\ f_k^j(x,t),\ k=\overline{1,N},\ j=0,1,\ldots,m_k-1\right\}$ funksiyalar sistemasi (16)-(21) masalaning yechimi bo‘lsin, u holda potensiali $u(x,t)$ bo‘lgan $L(t), t>0$ operator sochilish nazariyasining berilganlari t ga nisbatan quyidagi differensial tenglamalar orqali o‘zgaradi

$$\frac{dr^+(\xi,t)}{dt}=\left(-\frac{i\rho(t)}{2\xi}+2i\xi\omega(t)\right)r^+(\xi,t),\quad (\operatorname{Im}\xi=0);\quad \xi_k(t)=\xi_k(0),\quad k=\overline{1,N},$$

$$\frac{d\varkappa_0^n(t)}{dt}=i\left(2\xi_n\omega(t)-\frac{\rho(t)}{2\xi_n}+\frac{i}{2}A_0^n(t)\right)\varkappa_0^n(t),$$

